Bu yerda λ = 1.5406Å, **θ – Bragg diffraksion burchagi, β – radiandagi yarim maksimumdagi to‘liq kenglik (FWHM), K = 0.94 Scherrer konstantasi sifatida qo‘llanilgan (jadval-1).**

1-jadval

CuO/PPE-2 funksional nanomaterialning o‘rtacha kristallit o‘lchami

Peak position 2θ (°)	FWHM β (°)	Kristalit o‘chami D (nm)
10,94839	0,31584	26,39
16,17859	0,2857	29,33
17,29199	0,2482	33,81
20,26219	0,25117	33,56
22,37269	0,25242	33,51
23,85787	0,25713	32,98
27,7942	0,30625	27,91
32,66214	0,2838	30,47
33,3882	0,311	27,85
34,96062	0,21853	39,81
44,60777	0,22621	39,65
O‘rtacha kristallit o‘lchami		32.30

Williamson-Hall usuli.

CuO nanozarrachalarini kristallit o‘lchami va panjara deformatsiyasi Williamson-Hall usuli yordamida hisoblandi. Bu usulda Scherrer tenglamasidan farqli ravishda cho‘qqilar kengayishiga kristallit hajmi va panjara deformatsiyasi alohida ta’sir ko‘rsatishi hisobga olinadi:

$$\beta_T = \beta_D + \beta\,\varepsilon \qquad (2)$$

Bu yerda β_T – umumiy cho‘qqi kengayishi, β_D – kristallit o‘lchami tufayli kengayish va β_ε – panjara deformatsiyasi tufayli kengayish.

Scherrer tenglamasidan ma’lumki,

$$D = \frac{K\lambda}{\beta_D \sin\theta}$$

yoki

$$\beta_D = \frac{K\lambda}{D \sin\theta} \qquad (3)$$

Bu yerda β_D – radiandagi yarim maksimumdagi to‘liq kenglik (FWHM), K = 0.94 – Scherrer konstantasi, λ = 0.15406 nm rentgen nuri to‘lqin uzunligi, D – kristallit o‘lchami va θ – radiandagi cho‘qqi joylashuvi.

Shunga o‘xshash rentgen diffraksiya cho‘qqisining mikrodefformatsiyasi tufayli kengayishi quyidagicha topiladi:

$$\beta\varepsilon = 4\varepsilon \tan\theta \qquad (4)$$

Bu yerda βε – deformatsiya tufayli cho‘qqining kengayishi, ε - panjara deformatsiyasi va θ – radiandagi cho‘qqi joylashuvi.

Yuqoridagi (3) va (4) tenglamalarni (2) tenglamaga qo‘ysak quyidagi tenglama hosil bo‘ladi:

$$\beta_T = \frac{K\lambda}{D\sin\theta} + 4\varepsilon\tan\theta \qquad (5)$$

$\tan\theta = \frac{\sin\theta}{\cos\theta}$ ekanligini hisobga olsak tenglama quyidagi ko‘rinishga keladi:

$$\beta_T \cos\theta = \varepsilon(4\sin\theta) + \frac{K\lambda}{D} \qquad (6)$$

Ushbu (6) tenglama to‘g‘ri chiziqli tenglama(y=ax+b)ni ifodalaydi. Bunda ε – to‘g‘ri chiziq qiyaligi **a** va $\frac{K\lambda}{D}$ – **y** o‘qi kesishmasi **b** ni beradi. Ya’ni biz x-o‘qiga $(4\sin\theta)$ va y-o‘qiga $(\beta_T\cos\theta)$ qiymatlarini qo‘yib to‘g‘ri chiziq chizgan holatda kristallit hajmini topishimiz mumkin. Buning uchun bizga quyidagi 2-jadvaldagi ma’lumotlar kerak bo‘ladi.

2-jadval

W-H chizmasi uchun hisoblangan qiymatlar

No.	2θ (degree)	FWHM (β_T) in degree	$\beta_T\cos\theta$	$4\sin\theta$
1	10,94839	0,31584	0,00549	0,38159
2	16,17859	0,2857	0,00494	0,56287
3	17,29199	0,2482	0,00428	0,60132
4	20,26219	0,25117	0,00432	0,7036

5	22,37269	0,25242	0,00432	0,776
6	23,85787	0,25713	0,00439	0,82679
7	27,7942	0,30625	0,00519	0,96072
8	32,66214	0,2838	0,00475	1,12475
9	33,3882	0,311	0,0052	1,14905
10	34,96062	0,21853	0,00364	1,20151
11	44,60777	0,22621	0,00365	1,51808

Hisoblash natijasiga ko‘ra defformatsiya qiymati $\varepsilon \approx 0.0003$ va kristallit hajmi $D \approx 32.30$ nm topildi, bu Debye-Scherrer usuli bilan mos keladi.

Kristal panjara parametrlari

CuO nanozarrachalar uchun kristal panjara parametrlari (a, b, c va β) quyidagi tenglama orqali hisoblandi:

$$\frac{1}{d^2} = \frac{1}{\sin^2\beta}\left(\frac{h^2}{a^2} + \frac{k^2\sin^2\beta}{b^2} + \frac{l^2}{c^2} - \frac{2hl\cos\beta}{ac}\right)$$

Kristal panjara interplanar masofaga bog‘liq konstantalari va Miller ko‘rsatkichlari (h, k, l) Bragg tenglamasi orqali hisoblandi:

$$d = \frac{\lambda}{2\sin\theta}$$

Natijalar quyidagi 3-jadvalda keltirilgan.

3-jadval

Hisoblablangan Interplanar masofa va Miller ko‘rsatkichlari qiymatlari

№	Cho‘qqi joylashuvi 2θ°	Interplanar masofa d (Å)	Miller ko‘rsatkichlari (hkl)
1	32.66214	2.73946	110
2	33.3882	2.68153	111
3	34.96062	2.56444	112
4	44.60777	2.02967	210


4-jadval

CuO/PPE-2 kristal panjara parametrlari

Panjara parametrlari	Standart qiymatlar (Å)	Hisoblangan qiymatlar (Å)
a	4.684	4.68
b	3.422	3.42
c	5.129	5.13

Panjara parametrlari	Standart qiymatlar (Å)	Hisoblangan qiymatlar (Å)
β (°)	99.54	99.54

Kristall panjara parametrlari CuO nanozarrachalari kristallari monoklinik tuzilishga ega bo‘lib, 01-078-0428 shifrli ICDD standartiga mos keladi (2**Ошибка! Источник ссылки не найден.**-rasm).



2-rasm. CuO ning monoklinik kristal panjarasi tuzilishi

XULOSA

O‘tkazilgan rentgen diffraksion tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, PPE-2 polimer matritsasiga kiritilgan mis(II) oksidi nanozarrachalari monoklinik CuO (tenorit) fazasiga xos bo‘lgan aniq difraksion cho‘qqilarni hosil qiladi. Difraktogrammalar intensivligining pasayishi va cho‘qqilarning kengayishi nanozarrachalarning nanokristallit holatda shakllanganini, shuningdek ularning polimer matritsa bo‘ylab bir tekis taqsimlanganini tasdiqlaydi. Debye–Scherrer usuli bilan aniqlangan o‘rtacha kristallit o‘lchami 32.3 nm oralig‘ida bo‘lib, bu CuO nanozarrachalari uchun xos bo‘lgan kuchsiz kristallanmagan (qisman amorf) strukturaning shakllanganini ko‘rsatadi.

XRD tahlili natijalari PPE-2 polimeri CuO zarrachalarini matritsa ichida barqarorlashtirib turuvchi o‘zaro kordinatsion bog‘lanishlar, elektrostatik hamda Van der Waals kuchlari orqali mustahkam bog‘langanligini tasdiqlaydi. Bu esa nanokompozitning strukturaviy barqarorligini oshiradi va zarrachalarning agregatlanishining oldini oladi. Shuningdek, CuO/PPE-2 nanokompozitining yetarli kristallanish darajasi uning issiqlikka chidamlilik, optik va fotokatalitik xossalarining yanada yaxshilanishiga zamin yaratadi.

Shunday qilib, olib borilgan tadqiqotlar CuO/PPE-2 nanokompoziti barqaror kristall tuzilishga ega bo‘lib, sensor materiallar, antibakterial qoplamalar va fotokataliz jarayonlarida qo‘llash uchun funksional imkoniyatini kengaytiradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. M. E. Grigore, E. R. Biscu, A. M. Holban, M. C. Gestal, and A. M. Grumezescu, ‘Methods of Synthesis, Properties and Biomedical Applications of CuO Nanoparticles’, Pharmaceuticals, vol. 9, no. 4, p. 75, Dec. 2016, doi: 10.3390/ph9040075.
2. Tazim T.Q. et al., Hydrothermal synthesis of nano-metal oxides for structural modification: A review // Nanotechnol. 2025. T. 7. C. 100167.
3. A. B. G. Trabelsi et al., ‘Effect of CuO Nanoparticles on the Optical, Structural, and Electrical Properties in the PMMA/PVDF Nanocomposite’, Micromachines, vol. 14, no. 6, Art. no. 6, June 2023, doi: 10.3390/mi14061195.
4. Y. Ahmadian, A. Bakravi, H. Hashemi, and H. Namazi, ‘Synthesis of polyvinyl alcohol/CuO nanocomposite hydrogel and its application as drug delivery agent’, Polym. Bull., vol. 76, no. 4, pp. 1967–1983, Apr. 2019, doi: 10.1007/s00289-018-2477-9.
5. Qureshi Z.A. et al., Carbon dots as versatile nanomaterials in sensing and imaging: Efficiency and beyond // Heliyon. 2024. T. 10, № 11. C. e31634.
6. Yoon Y. et al., Metal-Oxide Nanomaterials Synthesis and Applications in Flexible and Wearable Sensors // ACS Nanosci. Au. American Chemical Society, 2022. T. 2, № 2. C. 64–92.
7. Dörner L. et al., Cost-effective sol-gel synthesis of porous CuO nanoparticle aggregates with tunable specific surface area // Sci. Rep. Nature Publishing Group, 2019. T. 9, № 1. C. 11758.
8. HAJIBEYGI M., GHASEMI A. A hindered phenol containing PVC/CuO nanocomposites; study on the mechanical and thermooxidative properties // Turk. J. Chem. T. 49, № 1. C. 29–44.
9. Gupta, Sonali & K., Keerthan & Laxman Kudipady, Manas & Puttaiahgowda, Yashoda. (2024). Antibacterial Effect of Copper Oxide Nanoparticles on Polyvinyl Chloride-Based Polymer Nanocomposite. Advances in Polymer Technology. 2024. 10.1155/2024/5527195.

ГРАФИК ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИНИ ЛОЙИҲАЛАШ ТЕХНОЛОГИЯСИ

Камолитдин Абдуҳакимович Зойиров
Жиззах давлат педагогика университети доценти
педагогика фанлари номзоди
kamoliddin.60@mail.ru

АННОТАЦИЯ

Ушбу ишда график таълим жараёнини лойиҳалаш технологияси ҳақида фикр юритилиб, педагогик вазифани англаш, жараённи олдиндан кўра билиш ва лойиҳалаш, моделлаштириш, фараз қилиш, фикрий эксперимент, экстраколяция каби олдиндан кўра билишнинг турли методлари ойдинлатирилган. Шунингдек, таълимий жараённи олдиндан кўра билиш ва лойиҳалаш, таълим мазмунини ҳамда ўқув маълумотини лойиҳалаш технологиялари ҳақида фикр юритилади.

Калит сўзлар: таълим мазмуни, технологик ёндошув, таълимий жараённи олдиндан кўра билиш, лойиҳалаш технологияси.

ABSTRACT

This work discusses the technology of designing a graphic educational process, explains various methods of foresight, such as understanding the pedagogical task, anticipating and designing the process, modeling, hypothesising, thought experiment, extrapolation. It also discusses technologies for anticipating and designing the educational process, designing the content of education and educational information.

Keywords: educational content, technological approach, anticipating the educational process, design technology.

КИРИШ

Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясида таъкидланганидек, “... ўқув жараёнида компетенцияларни кучайтиришга қаратилган методика ва технологияларни жорий этиш”[1]лозим. Шу нуқтаи назардан қараганда олий таълим тизимида таълим-тарбия жараёнини самарали ташкил этиш, махсус фанларни ўқитишда инновацион педагогик технологиялардан фойдаланиб, таълим сифати ва самарадорлигига эришиш долзарб вазифалардан ҳисобланади.

Биз бу илмий мақолада таълим жараёнини самарали ташкил этиш жараёнига замонавий технологик ёндошув асосида график таълим жараёнини лойиҳалаш технологияси ҳақида сўз юритамиз.

Инсоният тараққиётининг барча босқичларида таълим жараёнини самарали ташкил этиш, унинг изчиллиги ва узлуксизлигини таъминлашга эришиш масалалари мутафаккир ҳамда илғор педагогларнинг диққат эътиборини тортиб келган. Ёш авлод таълим-тарбиясини ташкил этишнинг ушбу жиҳатлари ўз даврида Абу Али ибн Сино, Мирзо Улуғбек, Ян Амос Коменский, Д.К Ушинский, Абдулла Авлоний, ва бошқа алломалар томонидан ишлаб чиқилган.

НАТИЖАЛАР

График таълим жараёнини лойиҳалаш. Лойиҳалаш таълимий жараённи ташкил этиш ва муваффақиятли ўтишининг муҳим шартларидан бири ҳисобланиб, фаолиятни таҳлил қилиш, уни олдиндин кўра билиш ва режалаштирилган фаолиятни амалга ошириш лойиҳасини ишлаб чиқишни ўз ичига олади. Педагогик вазифани ҳал этишнинг бу босқичида ўзининг ва таълим олувчи фаолиятининг мазмуни, воситалари ва дастурларини лойиҳалашга нисбатан мустақил йўналтирилган бир-бири билан узвий алоқада бўлган ўқитувчи фаолиятини кўрсатиш мумкин. Шунга кўра таълим жараёнини лойиҳалаш технологиясини **мазмунни лойиҳалаш технологияси** (лойиҳа – мазмун- фаолияти), **моддий ёки моддийлашган воситаларни лойиҳалаш** (лойиҳалаш - моддий) ва **фаолиятни лойиҳалаш** (лойиҳалаш-оператив) технологиялар бирлиги сифатида намоён бўлади. Бу уч хил лойиҳалар ўз предметига кўра фарқланади. Уларнинг ҳар бирида педагог томонидан бирма-бир амалга ошириладиган ташҳис қўйиш билан якунланадиган **таҳлилий фаолият**; **олдиндан кўра билиш** ва **лойиҳалаш** -ижодий фаолиятларига ажратилади. Таҳлил, олдиндан кўра билиш ва лойиҳа - ҳар қандай педагогик вазифани ечишнинг ажралмас учлиги ҳисобланади. Стратегик, тактик ва оператив вазифаларни ҳал этишнинг самарадорлиги лойиҳалаш технологиясининг сифатига боғлиқ, яъни, лойиҳанинг мақсади олдиндан қоғозда конспект-режа, конспект сифатида қайд этилган ёки этилмаганлиги бундан мустасно.

Таълим жараёнини лойиҳалаш технологияси педагог фаолиятига, педагогик воситаларни ишлатиш мазмуни ва имкониятига боғлиқ бўлиб қолмаслиги керак. У асосан таълим олувчиларга, таълим олувчилар гуруҳи ва ҳар бирига алоҳида (индивидуал) фаолиятига қаратилган ҳолда амалга оширилиши керак.

Таълимий вазифаларни англаш, маълумотлар таҳлили ва педагогик ташҳис қўйиш. Таълимни ижтимоий- педагогик мақсадларга таянган ҳолда, педагогик жараённинг умумий стратегиясини ташкил этади ва таълим олувчилар, ўқитувчилар учун

керакли бўлган ўқув режаси, дастурлари, дарслик, методик тавсиялар ва бошқа ўқув қўлланмаларда намоён бўлади.

Таълимий мақсадлар аниқ таълимий вазиятларга таянган ҳолда, таълимий жараёнга тайёрланиш босқичида педагогик вазифа сифатида англаниши керак. Педагог ижодий жараёнида турли педагогик вазифалар бирдан ёки бирин-кетин англаниши керак. Аввало, педагог фаолиятининг умумий вазифалари бўлиши керак, яъни, якуний ҳисобда ижодий жараённинг барча деталларини яхлит концепция сифатида аниқлаш керак. Сўнгра шахснинг шаклланишида аниқ босқични ифодалайдиган педагогик фаолият билан боғлиқ босқичли педагогик вазифа сифатида аниқланиши керак. Охирида эса, педагогик жараённинг ҳар бир кичик элементида доимий вужудга келадиган вазиятли (хусусий) педагогик вазифалар пайдо бўлиши тушунилади.

Таълимий вазифани англаш - уни самарали ҳал этишнинг шартидир. Агар педагогик вазифа англанмаса, унда уни ҳал этиш ҳам мумкин эмас. Эндигина касбий фаолиятга қадам қўйган ўқитувчилар тажрибасизлигидан педагогик вазифани англаш, қўйиш босқичини белгилаш малакасига эга бўлмайдилар. Улар буни ўзларича дарҳол ҳал этмоқчи бўладилар ва хатога йўл қўядилар.

Таълимий вазифани англаш маълумотлар таҳлили ва ташҳис қўйишни белгилайди. Маълумотлар таҳлили вазият жойини аниқлашдан ташқари, бутун педагогик жараёнда тарбиячи, тарбияланувчи ва улар ўртасидаги муносабат мазмуни; педагогик жараёнда амалга ошириладиган таълим мазмуни, мавжуд восита ва шароитлар каби асосий таркибий қисмларни аниқлашга йўналтирилган бўлиши лозим.

Маълумотлар таҳлили педагогик жараён ҳолатини, ўқув-тарбия жамоасини ва алоҳида тарбияланувчилар ҳолатини аниқ вазиятларда режали ўрганиш каби кўпгина илмий далиллар билан чамбарчас боғлиқ. Буларнинг бари биргаликда педагогик ташҳис қўйиш, яъни, исботланган илмий маълумотларга таянган амалий ҳаракатлар асосини ташкил этади. Амалий педагогикада ташҳис дегани педагогик жараённинг умумий ҳолати ёки унинг таркибий қисмларини ҳар томонлама яхлит текшириш орқали баҳолашдан иборат.

Таълимий жараённи олдиндан кўра билиш ва лойиҳалаш. Таълим олувчи шахсини ҳар томонлама билиш, гуруҳнинг хусусиятларини жамоа сифатида билиш, аниқ педагогик вазиятларда маълумотларни таҳлил этиш педагогик ташҳиснинг асосини ташкил этадики, улар таълим жараёнини лойиҳалашнинг кейинги муҳим босқичини - таълимий жараённи олдиндан кўра билиш имконини яратади,

у эса педагогик мақсадга олиб келади. У мақсадларнинг асосланган ташҳисли вазифасини қўйиш имконини беради. Шахснинг ривожланиши таълим мақсадлари билан бир хил бўлгандагина педагогикада “боласизлик”нинг олдини олиш шартидир. Буни шундай тушунтириш мумкин, яъни, мақсад педагогик тизимни тизимлаштирувчи омил сифатида кечиб бўлмайдиган муаммоларни ҳал этади. Ташҳис қўйиш тарбия, мақсад ва вазифаларини ҳал этишнинг умумий талаби ҳисобланади. У мақсадларнинг аниқлиги, бир хиллиги, уларни бажариш усуллари, ўлчаш ва баҳо беришни билдиради. Агар ташҳис мақсади талаблари бажарилмаган бўлса, у ҳолда “мақсад” элементи педагогик тизимни такомиллаштириш учун тизимлилик қила олмайди.

Педагогик олдиндан кўра билиш илмий асосланган низом ва методларни илмий исботлашга таянган объект ҳақидаги маълумотни олдиндан билиш жараёни сифатида белгиланади. Бунда объект сифатида гуруҳ, талаба, билим, муносабат ва ҳакозалар юзага чиқади.

Ўқитувчи мукаммал ўзлаштириши керак бўлган **олдиндан кўра билиш методлари** турли-тумандир. Улар **моделлаштириш, фараз қилиш, фикрий эксперимент, экстраколяция** ва бошқалар.

Изланувчи ва меъёрий олдиндан кўра билишни фарқлаш лозим. Изланувчи олдиндан кўра билиш объектнинг бўлажак ҳолатини, унинг ривожланиши ва ташқи шароитларнинг таъсирини ҳисобга олган ҳолда аниқлашга бевосита йўналтирилган. Меъёрий олдиндан кўра билиш берилган объектнинг ўзгаришини ҳисобга олган ҳолда, берилган ҳолатга эришишнинг самарали йўлларини излаб топишни билдиради. Таълимий жараённи лойиҳалаштиришда бу иккиси бир-бири билан чамбарчас боғлиқдир. Олдиндан кўра билиш натижасига эришишнинг мавжуд йўллари педагог фикран амалга оширадиган педагогик вазифаларни ҳал этишнинг самарали усулларини фараз қилишдир.

Ўқитувчи фаолиятидаги олдиндан кўра билиш инсон қобилиятининг мақсадга эришиш йўлида натижалар беради. Педагогик фаолият мақсади (эришиш йўллари мураккаблигига қарамасдан) - бу ҳали амалга ошмаган фаолиятнинг моделлаштирилган натижаси, у онгда педагогик жараённинг реал миқдорий ва сифат ўзгаришларини, унинг алоҳида таркибий қисмларининг лойиҳаси бўлиб англанади. Педагогик вазифалар турига, уларнинг вақт сифатига қараб олдиндан кўра билиш, стратегик, тактик ва тезкор турларга бўлинади.

Педагогик олдиндан кўра билиш мақсадга интилувчанлик билан боғлиқ ҳолда педагогик вазифаларни аниқлаштиришнинг ва уларни педагогик вазифалар тизимига

йўналтиришнинг сўнгги натижаси бўлади. Бунда педагогик вазифанинг аниқ ўқув материали сифатида моддийлашуви юзага келади, бунда педагогик ташҳис берадиган маълумотлар, яъни, шахс ва жамоа қўшимча имкониятлари ва тайёргарлиги ҳисобга олиниши керак. Илмий асосланган олдиндан кўра билиш натижаси сифатида, педагогик вазифа педагог ва таълим олувчи фаолиятининг мазмун, мотивация ва тезкор томонларини синтез қилади. Педагог педагогик вазифани аввало, ўзи учун шакллантиради, кейингина таълим олувчиларга юзланади ва уни ҳал этишга жалб қилади.

Педагог томонидан ўтказилган малакали олдиндан кўра билиш ва мақсадга интилувчанлик **таълим жараёнини таълимий лойиҳалаш**нинг асосини ташкил этади. Таълимий лойиҳалашниинг педагогик вазифаси яхлит ҳолда ҳал этиб амалга оширишда мазмун, ташкилий - методик, моддий - техник, ижтимоий - психологик (ҳиссий, коммуникатив ва ҳоказо) расмийлаштирилади.

Таълим мазмунини лойиҳалаш. Таълимий жараённи лойиҳалаш босқичида педагог дуч келадиган биринчи муаммо - бу унинг **мазмунини лойиҳалаш**. Ўқув дастури ва таълим олувчи таълим мазмуни лойиҳаси ҳисобланиб, ўқитувчи бунда педагогик фаолият, мақсад ва шароитларга мувофиқ ҳолда таълим олувчиларга нимани тақдим этиш ҳақида мустақил қарор қабул қилади.

Бундан **ўқув маълумотини лойиҳалаш технологияси** - педагог қарорларни ўрнатилган меъёрларда чекланган тизим шароитида қабул қилиш жараёни, бунда таълим олувчилар берилаётган маълумотда нимани ва қандай ҳажмда ўзлаштириши кераклиги; таълим олувчилар дастлабки тайёргарлик даражаси ўқув маълумотини қабул қилиши; ўқитувчининг ўзини, таълим муассасасининг имкониятлари ҳисобга олинса, мақсадга мувофиқ бўлади. Ўқув маълумотининг топшириладиган, тақдим этиладиган ва ўзлаштирилган турларини кўрсатиш мумкин [2].

Технологик муносабатда ўқув материали ва унинг тузилиши муаммоси муҳим аҳамият касб этади. Бу муаммони ҳал этишда “дидактик материал” ва “ўқув материали” тушунчалари моҳиятини фарқлай олиш зарур. Дидактик материал, Г.А. Балл нуқтаи назарига кўра, - бу шундай объектлар тизимидан иборатки, уларнинг ҳар бири моддий ёки моддийлашган модел сифатида ижтимоий билим ва тажрибадан келиб чиқиб ишлатилади[3].

Ўқув материали - бу шундай идеал материаллар тизимики, дидактик материалнинг моддий ва моддийлашган моделларида акс этади. Ва ўқув фаолиятида ишлатиш учун мўлжалланган.

Модомики, ўқув фаолияти ўқув вазифаларини ҳал этиш жараёни сифатида қаралар экан, табиийки, ўқув вазифаси ўқув материалининг бўлиниш бирлиги бўлади. Шу билан бирга ўқув материалини педагогик томондан мақсадга йўналиш тизими деб қараш мумкин. Бундан келиб чиқадики, ўқув вазифаси тизимининг қурилиши ўқитувчи фаолиятининг ўқув материалини лойиҳалаш ва дидактик материални ишлаб чиқишда асосини ташкил этади.

Ўқув жараёнини лойиҳалашнинг мазмунини англаш учун М.А.Данилов[4] томонидан биринчи марта исботланган **ўқув жараёни мантиқий муаммоси**га мурожаат қилиш керак. У бу жараённи уч томондан кўриб чиқади: таълим жараёнини бутун курсини такомиллаштиришнинг асоси сифатида; маълум мавзу билан чекланган ўқув жараёни мантиғи сифатида . М.А.Даниловнинг ўзаро боғланган мантиқлари ва вақт бўйича белгиланган педагогик вазифалар турлари ўртасида параллел ўтказиш мумкинки, у худди педагогик вазифа ва ўқув жараёни “бўғини” ўртасидаги тенг муносабатга ўхшайди.

Таълимий жараённи ижодий лойиҳалаш асослари. Тажрибалар таҳлили кўрсатишича, ўқув - тарбия жараёнини лойиҳалаш мураккаблиги шундан иборатки, бу уни ишлаб чиқиш учун камида иккита: чекловлар ва кўрсатмалар гуруҳлари ҳисобга олиниши лозим. Таълим мазмуни **илмийлик ва амалий аҳамият талаблари**ни тўлдириши, ўқув жараёнига ажратилган вақтга мувофиқ ташкил этилиши лозим[6]. Бундан ташқари, ушбу мазмунини қабул қилиш учун ўқувчиларнинг тайёргарлик даражаси мос келиши лозим, яъни уларга нима мураккаб ва нима учун, ўқув фанини ўзлаштиришдаги қийинчиликларни қандай бартараф этиш мумкинлигини аниқлаб олиш шарт.

МУҲОКАМА.

Бундан келиб чиқадики, **лойиҳалаш технологиясида** ишлаб чиқаришда асосий масала қилиб таълим олувчиларни, уларнинг эҳтиёжларини маълум таълим босқичида ўқув машғулотига тайёрлашни, уларни ўз-ўзини ривожлантириш қобилиятини асосий нуқталари деб олсагина педагог муваффақият қозонади.

Олий, тизимли моделлаштириш даражасидаги педагогларда лойиҳаловчи, яъни, узоқ давомли технологиялар асосий ўрин эгаллайди. Репродуктив мослаштирилган ва ўша жойга хос (локал) - моделлаштирувчи педагогларнинг кескин фарқи шундаки, яхлит фан эмас, балки дарс технологияси, яхлит педагогик жараён эмас балки тарбиявий тадбир асосий ўринда туради.

Агар педагогнинг фаолияти таълим олувчининг талабларига яъни, охирги мақсадларига қаратилган бўлса, унда у яхлит педагогик жараённи ҳамда алоҳида ўқув

машғулотлар ва тарбиявий тадбирларни лойиҳалашда қийинчиликка учрамайди.

ХУЛОСА

Шундай қилиб, хулоса қилиш мумкинки, таълим жараёнини лойиҳалаш технологиясини график таълим жараёнига қўллаш асосида, ижобий якуний натижаларга эришган педагог дастурда кўзда тутилган аниқ мазмундан четга чиқмайди ва унинг асосида ўзининг шахсий фаолият дастурини яратади, бунда таълим олувчилар томонидан чуқур ўзлаштирилиши керак бўлган график билимлар, ўқув курсининг асосий таянч тушунчалари, ўқув ахборотларни ўзлаштириш психологиясини ҳисобга олган ҳолда лойиҳалашни амалга оширади.

АДАБИЁТЛАР

1.Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепцияси. /Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8-октябрдаги ПФ-5847- сон фармонига илова. Тошкент. 2019.

2.Кузьмина Н.В. Методы исследования образовательных систем : монография / Российская академия образования, Ленинградский государственный университет им. А. С. Пушкина [и др.]. — Санкт-Петербург : Изд-во НУ «Центр стратегических исследований», 2018. — 162 с. — ISBN 978-5-98994-080-6. Ё

3. Балл Г.А., Мединцев В.А. Теоретико-множественный метод описания процессов и его применение в психологии: монография. – Київ: Педагогічна думка, 2016. 88 с.

4.Данилов М.А. Теоретические основы и методы фундаментальных педагогических исследований. — М., 1972.

5.Голиш Л.В. Файзуллаева Д.М. Педагогик технологияларни лойиҳалаштириш ва режалаштириш. Т.: Иқтисодиёт, 2011. -2008 б.

6.Зойиров, К. А., & Махмудов, А. А. (2023). Интенсификация графической подготовки будущего архитектора с применением компьютерной технологии в контексте современности. Academic Research in Educational Ciences, 4(2), 44–51. https://doi.org/

СТРУКТУРНЫЕ ИЗМЕНЕНИЯ В МОНОКРИСТАЛЛИЧЕСКОМ КРЕМНИИ ПРИ ЛЕГИРОВАНИИ НИКЕЛЕМ И ЦИНКОМ

Дарьябай Муратбаевич Есбергенов
Нукусский государственный технический университет
e-mail: edaryabay@gmail.com

АННОТАЦИЯ

Методом рентгеновской дифракции исследованы структурные изменения в монокристаллическом кремнии n- и p-типа, легированном никелем (Ni) и цинком (Zn) как раздельно, так и совместно, путем высокотемпературной диффузии (T=1000–1250 °C). Установлено, что легирование обоими элементами приводит к возникновению деформации растяжения в решетке кремния, что проявляется в смещении основного рефлекса Si (111) в сторону меньших углов и увеличении параметра решетки. Наиболее существенные структурные изменения наблюдаются при совместном легировании, которое вызывает значительное уширение дифракционного пика и уменьшение среднего размера областей когерентного рассеяния с ~25 нм до ~15 нм, свидетельствуя о высокой плотности введенных дефектов. Показано, что легирующие примеси активно взаимодействуют с фоновым кислородом и водородом, образуя нанокристаллические фазы оксидов (NiO, ZnO) и гидридов. Ключевым результатом работы является обнаружение при совместном легировании Ni и Zn формирования в кремниевой матрице новой кубической интерметаллической фазы ZnNi со средним размером кристаллитов 14–25 нм. Полученные данные демонстрируют сложный характер взаимодействия примесей в кремнии и возможность синтеза *in-situ* встроенных тройных наноструктур, что открывает перспективы для создания новых функциональных материалов на основе кремния.

Ключевые слова: кремний, легирование, никель, цинк, рентгеноструктурный анализ, междоузельные дефекты, интерметаллиды Zn-Ni.

STRUCTURAL CHANGES IN SILICON DOPED WITH NICKEL AND ZINC

Daryabay Muratbaevich Esbergenov
Nukus State Technical University
e-mail: edaryabay@gmail.com

ABSTRACT

Structural changes in n- and p-type single-crystal silicon, doped with nickel (Ni) and zinc (Zn) separately and simultaneously via high-temperature diffusion (T=1000–1250 °C), were investigated by X-ray diffraction. It was established that doping with both elements induces tensile strain in the silicon lattice, which is evidenced by a shift of the main Si (111) reflection to lower angles and an increase in the lattice parameter. The most significant structural changes are observed under co-doping, which causes substantial broadening of the diffraction peak and a decrease in the average crystallite size from ~25 nm to ~15 nm, indicating a high density of induced defects. The dopants were shown to actively interact with background oxygen and hydrogen, forming nanocrystalline oxide (NiO, ZnO) and hydride phases. The key result of this work is the discovery of a new cubic ZnNi intermetallic phase with an average crystallite size of 14–25 nm, formed within the silicon matrix during Ni and Zn co-doping. These findings demonstrate the complex nature of impurity interactions in silicon and the possibility of *in-situ* synthesis of embedded ternary nanostructures, opening prospects for the creation of new silicon-based functional materials.

Keywords: silicon, doping, nickel, zinc, X-ray diffraction, interstitial defects, Zn-Ni intermetallics.

ВВЕДЕНИЕ

Примеси переходных металлов, таких как никель (Ni) и цинк (Zn), в кремнии (Si) являются предметом давнего научного интереса из-за их значительного влияния на электрофизические свойства полупроводника. В то время как свойства изолированных атомов этих примесей достаточно хорошо изучены [1-4], а структурные изменения и формирование комплексных дефектов или новых фаз при их совместном введении остаются менее исследованной областью. В данной работе представлены результаты рентгеноструктурного анализа монокристаллического кремния, легированного примесями Ni и Zn как по отдельности, так и совместно, с пересмотренной интерпретацией наблюдаемых дифракционных эффектов.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ ИССЛЕДОВАНИЯ

В качестве исходного материала использовались пластины монокристаллического кремния n- и p-типа проводимости, выращенные методом Чохральского (Cz–Si). Легирование примесями проводилось методом высокотемпературной диффузии в вакуумированных кварцевых ампулах в диапазоне температур T=1000÷1250 °C в течение t=0,5÷5 часов. При совместном легировании на

поверхность образцов сначала напылялся цинк, после чего проводилась диффузия никеля из газовой фазы в тех же температурно-временных режимах**.** Ключевым этапом технологического процесса являлось быстрое охлаждение (закалка) путем сбрасывания ампул в техническое масло. Этот неравновесный процесс предназначен для фиксации высокотемпературного состояния примесей в решетке. Перед анализом все образцы подвергались жидкостному химическому травлению (ЖХТ) в травителе СР-4 ($HF:HNO_3:CH_3COOH$) в течение 3–10 минут для удаления поверхностных слоев [5].

Структурный анализ проводился на рентгеновском дифрактометре Empyrean Malvern PANalytical с использованием монохроматизированного CuKα-излучения (λ=0,15418 нм) в режиме пошагового сканирования ω−2θ.

РЕЗУЛЬТАТЫ И ОБСУЖДЕНИЕ

1. Структурные характеристики исходного кремния

Дифрактограмма исходного образца Cz−Si (рис. 1) демонстрирует интенсивный рефлекс Si(111) при угле 2θ=28,62°, что свидетельствует о высоком кристаллическом совершенстве материала. Наличие слабых рефлексов, отнесенных к фазам SiO_2 и Si_3H, является ожидаемым. Фаза SiO_2 закономерно присутствует в виде кислородных преципитатов, так как кремний, выращенный методом Чохральского, изначально содержит высокую концентрацию растворенного кислорода [6]. Фазы гидрида кремния (Si_3H), в свою очередь, являются следствием взаимодействия поверхности кристалла с водородом, выделяющимся в процессе химического травления в травителе СР-4.




Рис.1. Рентгенограмма исходного образца Si<P>

Уширение основного рефлекса Si(111) (FWHM=6,5·10^{-3} рад) для монокристаллического образца определяется в первую очередь инструментальным уширением дифрактометра и исходным уровнем микронапряжений в кристалле. Применение уравнения Шеррера для оценки «размера кристаллитов» в данном случае некорректно, так как оно предназначено для поликристаллических материалов. Поэтому в дальнейшем анализе уширение пиков будет рассматриваться как качественная мера уровня микронапряжений, индуцированных легирующими примесями [7].

2. Влияние легирования никелем

Легирование никелем приводит к драматическим изменениям в дифракционной картине (рис. 2). Рефлекс Si(111) смещается в область меньших углов (2θ=28,40°), его интенсивность значительно падает (с 16740 до 184,3 отн. ед., т.е. на ~99%), а ширина пика (FWHM) заметно увеличивается до 8,6·10^{-3} рад.

Эти эффекты наилучшим образом объясняются формированием пересыщенного твердого раствора междоузельного никеля. Быстрое охлаждение (закалка) «замораживает» атомы Ni, которые при высоких температурах обладают высокой подвижностью, в междоузлиях кристаллической решетки кремния [8-10].




Рис.2. Рентгенограмма образца Si<Ni> при T=1100 °C, t=3 ч., с быстрым охлаждением

Междоузельные атомы создают сильные локальные искажения, что приводит к:

- Увеличению параметра решетки (смещение пика влево), так как атомы Ni «распирают» решетку изнутри.
- Резкому падению интенсивности из-за сильного нарушения периодичности решетки (статический эффект Дебая-Валлера).
- Значительному росту микронапряжений (увеличение FWHM).

На дифрактограмме также идентифицированы фазы NiO и гидриды никеля (NiH, Ni_3H). Их образование, по аналогии с исходным образцом, связано с взаимодействием введенного никеля с фоновыми примесями: кислородом, изначально присутствующим в Cz–Si, и водородом, поступающим из травителя в процессе ЖХТ.

3. Влияние легирования цинком

В образце, легированном цинком (рис. 3), рефлекс Si(111) также смещается к меньшему углу (2θ=28,43°), указывая на расширение решетки. Однако остальные эффекты выражены несравнимо слабее, чем в случае с никелем: интенсивность снижается лишь на ~32% (до 11400 отн. ед.), а уширение пика (FWHM=$6{,}6\cdot10^{-3}$ рад) практически не отличается от исходного образца.




Рис.3. Рентгенограмма образца Si<Zn> при T=1100 °C, t=3 ч., с быстрым охлаждением

Такое кардинальное различие в воздействии Ni и Zn свидетельствует о разных механизмах их встраивания в решетку кремния. Можно предположить, что атомы цинка, в отличие от никеля, имеют большую склонность занимать позиции замещения, то есть располагаться в узлах кристаллической решетки вместо атомов кремния [11, 12]. Такой механизм вызывает меньшие локальные искажения и, как следствие, приводит к менее значительному падению интенсивности и росту микронапряжений. Обнаруженные фазы ZnO и ZnH также объясняются взаимодействием с кислородом и водородом.

4. Эффекты совместного легирования

Образец, легированный одновременно цинком и никелем (рис. 4), демонстрирует наиболее сильные искажения основной кремниевой матрицы. Интенсивность рефлекса Si(111) падает до минимального значения (136 отн. ед.), а уширение пика становится максимальным (FWHM=$9{,}2\cdot10^{-3}$ рад). Это указывает на то, что доминирующий вклад в создание напряжений вносит никель, который, по-прежнему частично остается в междоузельном состоянии.




Рис.4. Рентгенограмма образца Si<Zn+Ni> при T=1100 °C, t=3 ч., с быстрым охлаждением

Ключевым результатом для этого образца является идентификация рефлексов, принадлежащих новой фазе — интерметаллическому соединению ZnNi [13-15]. Это свидетельствует о том, что при совместном присутствии атомы Ni и Zn активно взаимодействуют друг с другом, формируя нанокристаллические преципитаты новой фазы со средним размером зерен 14–25 нм. Таким образом, в системе реализуется сложный механизм: часть атомов никеля остается в междоузлиях решетки Si, вызывая ее сильную дисторсию, в то время как другая часть реагирует с атомами цинка, образуя термодинамически более стабильные интерметаллические включения.

Таблица 1. Сводные структурные параметры для исследованных образцов

Параметр	**Si⟨P⟩ (исходный)**	**Si⟨Ni⟩**	**Si⟨Zn⟩**	**Si⟨Zn+Ni⟩**
2θ пика Si(111), град.	**28,62**	**28,40**	**28,43**	**28,42**

Интенсивность Si(111), отн. ед.	**16740**	**184,3**	**11400**	**136**
FWHM пика Si(111), рад.	**$6{,}5\cdot10^{-3}$**	**$8{,}6\cdot10^{-3}$**	**$6{,}6\cdot10^{-3}$**	**$9{,}2\cdot10^{-3}$**
Относительные микронапряжения	**Базовый уровень**	**Высокие**	**Низкие**	**Очень высокие**
Идентифицированные вторичные фазы	**SiO_2, Si_3H**	**NiO, Ni_3H, NiH**	**ZnO, ZnH, Zn**	**ZnO, NiO, ZnNi**

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

На основании проведенного рентгеноструктурного анализа и пересмотренной интерпретации данных были установлены ключевые закономерности структурных изменений в кремнии, легированном никелем и цинком. Было показано, что введение обеих примесей приводит к увеличению параметра кристаллической решетки кремния. При этом структурные искажения, вносимые никелем, оказались на порядки сильнее, чем искажения от цинка. Такое различие объясняется разным преимущественным расположением примесей: междоузельным для Ni и, предположительно, замещающим для Zn. Использованный метод быстрой закалки является ключевым технологическим фактором, способствующим фиксации атомов никеля в метастабильных междоузельных позициях.

Кроме того, исследование выявило активное взаимодействие легирующих элементов с фоновыми примесями. Наблюдаемые оксидные (NiO, ZnO) и гидридные (NiH, ZnH) фазы являются закономерными побочными продуктами, образовавшимися в результате химических реакций с кислородом из подложки Cz-Si и водородом из травителя.

Наиболее значимым результатом является обнаружение формирования нанокристаллических преципитатов новой интерметаллической фазы ZnNi при совместном легировании. Важно отметить, что даже при образовании этой фазы в решетке кремния сохраняется высокий уровень микронапряжений, что, по-видимому, обусловлено той частью атомов никеля, которая осталась в междоузлиях и не вошла в состав интерметаллида.

ЛИТЕРАТУРА

1. Graff, K. *Metal Impurities in Silicon-Device Fabrication*. Springer, 2000.
2. Istratov, A. A., et al. "Transition metal impurities in silicon." *Applied Physics A* 70.5 (2000): 489-534.
3. Istratov, A. A., et al. "Nickel solubility in intrinsic and doped silicon." *Journal of Applied Physics* 97.2 (2005): 023505.
4. Fuller, C. S., and Morin, F. J. "Electrical Properties of Zinc in Silicon." *Physical Review* 105.2 (1957): 379.
5. Ali, A., et al. "Effects of zinc doping on current-voltage and capacitance-voltage-frequency characteristics of n-silicon Schottky diode." *Journal of Materials Science: Materials in Electronics* 33.20 (2022): 16429-16440.
6. Borghesi, A., et al. "Oxygen precipitation in Czochralski-grown silicon." *Journal of Applied Physics* 77.9 (1995): 4169-4241.
7. Holy, V., et al. "Application of high-resolution x-ray diffraction for detecting defects in SiGe(C) materials." *Journal of Physics D: Applied Physics* 32.10A (1999): A13.
8. Saidovich, N. S., Muratbaevich, E. D., & Maxambetyarovna, N. E. (2021). Nickel-related complex defects in silicon. *European science review*, (7-8), 6-8.
9. Насриддинов, С. С., & Есбергенов, Д. М. (2022). Исследования комплексного дефектообразования в кремнии, легированном никелем. *Известия высших учебных заведений. Физика. 2022. Т. 65, № 9. С. 126-130.*
10. Kittler, M., et al. "Transition metal interaction and Ni-Fe-Cu-Si phases in silicon." *Journal of Applied Physics* 108.4 (2010): 044901.
11. Zunger, A. "Electronic structure of 3d transition-atom impurities in silicon." *Physical Review B* 28.10 (1983): 5878.
12. Schroder, D. K. "Gettering of metal impurities in silicon." *Materials Science and Engineering: B* 73.1-3 (2000): 65-74.
13. Murarka, S. P. "Metal silicides: An integral part of microelectronics." *JOM* 57.9 (2005): 24-30.
14. Есбергенов, Д. М. (2024). Измерение фотоёмкости образцов кремния, легированных атомами Ni и Zn. *Вестник науки*, *4*(12 (81)), 1940-1945.
15. Есбергенов, Д. М. (2023). Взаимодействие примесей Zn и Ni с технологическими примесями в кремнии. *Известия высших учебных заведений. Физика. 2023. Т. 66, № 5. С. 53-59.*

CONTENTS

1. B. R. Ramazonov. (2025). O‘RMONLARDAN UZLUKSIZ VA BARQAROR FOYDALANISH – MAMLAKAT OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA’MINLASHDAGI ENG DOLZARB MUAMMO. *Academic Research in Educational Sciences, 6*(10), 5–13.

2. D. R. Abdullabekova., & O. M. Kutbidinov, S. A. Shukurullayev (2025). REVIEW — MODERN TECHNOLOGIES FOR AUTOMATION OF POWER-TRANSFORMER DIAGNOSTICS. *Academic Research in Educational Sciences, 6*(10), 14–22.

3. Bo‘riyeva M. Sh. (2025). NIZOLI OILALARNI BARQARORLASHTIRISH MEXANIZMLARINI O‘RGANISH XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASI MISOLIDA. *Academic Research in Educational Sciences, 6*(10), 23–29.

4. B. R. Ramazonov (2025). OROL BO‘YI HUDUDLARI EKOLOGIK MELIORATIV HOLATINI YAXSHILASHDA O‘RMONZORLAR BARPO ETISHNING AMALIY AHAMIYATI. *Academic Research in Educational Sciences, 6*(10), 30–38.

5. Begimov O. T.(2025). NUTQ MADANIYATI ISHBILARMONLIK MUHITIDA MUTAXASSISNING KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHNING MUHIM SHARTI SIFATIDA. *Academic Research in Educational Sciences, 6*(10), 39–44.

6. Eshtursunov D. A., Bekchanov D. J., Muxamediyev M. G. (2025). COMPARATIVE THERMAL DEGRADATION BEHAVIOUR OF PRISTINE AND MODIFIED POLYVINYL CHLORIDE: INFLUENCE OF CUO AND FE3O4 NANOPARTICLES. *Academic Research in Educational Sciences, 6*(10), 45–54.

7. Ma’murjonov B. J. (2025). MUSTAQILLIK DAVRIDA O’ZBEKISTONDA ILM-FAN SOHASIDAGI TARIXIY O’ZGARISHLAR. *Academic Research in Educational Sciences, 6*(10), 55–61.

8. Nurmanov Sherzod (2025). INOVATSION TEXNOLOGIYALARNING OLIY TA`LIM TIZIMIDAGI O`RNI. *Academic Research in Educational Sciences, 6*(10), 62–67.

9. Seytnazarova T. E., Tog‘anov J. Sh., Ro‘zieva M. R., (2025). BUG‘DOYNING T.BOEOTICUM BOISS DIPLOID TURI NAMUNALARI ISHTIROKIDA OLINGAN TURLARARO F2 DURAGAYLARIDA CHANGCHILARNING FERTILLIGI. *Academic Research in Educational Sciences, 6*(10), 68–73.

10. Eshtursunov D.A., Botirov S. X., Abdujalilov I. I., Bekchanov D. J., Muxamediyev M. G., (2025). CuO/PPE-2 FUNKSIONAL MATERIALNING RENTGEN DIFFRAKSION ANALIZI (XRD). *Academic Research in Educational Sciences, 6*(10), 74–82.

11. Камолитдин Абдуҳакимович Зойиров (2025). ГРАФИК ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИНИ ЛОЙИҲАЛАШ ТЕХНОЛОГИЯСИ. *Academic Research in Educational Sciences, 6*(10), 83–89.

12. Дарьябай Муратбаевич Есбергенов (2025). СТРУКТУРНЫЕ ИЗМЕНЕНИЯ В МОНОКРИСТАЛЛИЧЕСКОМ КРЕМНИИ ПРИ ЛЕГИРОВАНИИ НИКЕЛЕМ И ЦИНКОМ *Academic Research in Educational Sciences, 6*(10), 90–98.